



Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 7-mart, shanba,  
21 (24.201)-son

Ishonchim komil,  
sizdek fidoyi,  
shijoatli,  
mehnatkash  
ayollarimiz,  
butun xalqimiz  
bilan birga ezgu  
maqsadlarimizga  
albatta erishamiz!

Shavkat  
MIRZIYOYEV.

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews\_uz



https://twitter.com/zarnews\_uz



info@zarnews.uz

## 8-MART — XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNI

### MUKOFOTLAR MUBORAK!

Xalqaro xotin-qizlar bayrami munosabati bilan Prezidentimizning farmoniga ko'ra, bir guruh fidoyi, tashabbuskor ayollar davlatimizning unvon, orden va medallari bilan taqdirlandi.

Mukofotlanganlar orasida viloyatimizdan quyidagilar bor:

«O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ SHOIRI»  
faxriy unvoni bilan

**Bobomurodova Xosiyat** - O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoira.

II DARAJALI «SOG'LOM AVLOD UCHUN»  
ordeni bilan

**Imamova Dilbar Babaqulovna** - Samarqand shahar nuroniylar jamoatchilik kengashi faoli.

«SOG'LOM TURMUSH»  
medali bilan

**Xalikova Xurshida Narzullayevna** - Samarqand viloyati yakka kurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabining dzyudo bo'yicha murabbiysi.

«SHUHRAT» medali bilan

**Zaxidova Nazira Saloxiddinovna** - Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi gid-tarjimoni.

**Kambaridinova Noila Mexrojovna** - Toyloq tumani hokimining o'rinbosari — oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i.

Prezident qaroriga ko'ra, quyidagilar Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi:

Tohirova Mohigul Umir qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand dlat universiteti amaliy psixologiya kafedrasida o'qituvchisi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Samarqand davlat universiteti "Inklyuziv media klubi" rahbari. "Amerika psixologlar assotsiatsiyasi" a'zosi. 30 ga yaqin ilmiy va 10 ga yaqin publitsistik maqolalar muallifi.

2024-yilda "Umumiy psixologiya" nomli o'quv qo'llanmasi brayl alifbosida chop etilgan. Ushbu kitob ko'rishda nuqsoni bor shaxslarga mo'ljallangan birinchi ilmiy-psixologik adabiyotdir.

2025-yilda Moskvada o'tkazilgan xalqaro inklyuziv kreativ industriyalar forumida ishtirok etgan. Oilali, 2 nafar farzandning onasi.



**Mamedova Amaliya Parvizovna**  
Samarqand shahridagi 33-umumta'lim maktabi 11-sinf o'quvchisi

Sportning badiiy gimnastika turi bilan shug'ullanadi. Shu kungacha viloyat, respublika, xalqaro musobaqalarda 33 ta medalni qo'lga kiritgan.

2023-yildan O'zbekiston terma jamoasi a'zosi, 7 karra Osiyo chempioni.

2024-yilgi Osiyo chempionatida ikkita oltin medalni qo'lga kiritdi. 38-yozgi olimpiada o'yinlarida ishtirok egan.

2025-yil iyun oyida sport ustasi, iyul oyida xalqaro sport ustasi unvonini olgan.



Shiddat bilan tezlashayotgan jamiyat, kundan kunga yangilanayotgan sohalar, onlayn savdolar ommalashgan va texnologiyalarni chuqur tushunib ulg'ayayotgan avlodni tarbiyalashi lozim bo'lgan ayollar uchun bugun nima kerak? Mana shunday kunda o'zgarib, mablag' topish ham texnologik savodxonligimizga bog'liq bo'lib turgan paytda ta'lim eng birinchi o'ringa chiqaypti. Qaysi toifa xotin-qizlar bilan ishlamaylik, ularning qay biri bilan mulqot olib bormaylik, juda ko'p jihatlari ta'limga borib taqalyapti.

O'ZINI RIVOJLANTIRAYOTGAN  
AYOL YUTQAZMAYDI

Keling, fikrimni misollar bilan sharhlasam, uy bekasi hech bo'lmaganda farzandlari tarbiyasi uchun bugun nimalarnidir o'rganishi kerakligini aytmoqda. Uzoq yildan beri tadbirkorlik qilayotgan ayollar ishini rivojlantirish uchun qo'shimcha ta'limga ehtiyoj sezyapti. Dehqon, fermer opalarimiz ham internet orqali sohasidagi yangiliklarni kuzatmasa, ko'p narsadan ortda qolib ketyapti. Mahsulotlarini onlayn savdoga chiqarishga o'tgan, issiqxona, xo'jalik yurituvini bugun hech joyga chiqmasdan, ma'lum bir kurslar orqali onlayn o'zlashtirayotgan xotin-qizlar safi tobora kengayib bormoqda. Hatto uyidagi janjallardan so'ng himoya orderi berilgan ayollar ham maxsus reabilitatsiya markazlarida yashaydigan bo'lsa, ularga nimadir o'rgatilmoqda, hunardan tortib huquqiy bilimlarga. Bularning barchasi esa



## AYOL DOIMY E'TIBORDA BO'LISHI KERAK

ta'lim, o'qish, izlanish deganidir.

Bugun oila va xotin-qizlar boshqarmasi vakillari, xotin-qizlar faollari bir paytlardagi kabi faqat oilaviy mojarolarning oldini olish, turli arz-dodlar bilan shug'ullanish bilangina mashg'ul emas. Har

bir masalaga tizimli munosabat shakllanmoqda, ta'limga urg'u berilyapti va tizimdan ham shu talab etilmoqda.

(Davomi 3-sahifada) >>>



## Ziyoratgoh yaqinida yer osti yo'li qurilmoqda

Oqdaryo tumanidagi Dahbet shaharchasida joylashgan Mahdumi A'zam ziyoratgohi yaqinida, M-37 avtomagistralida piyodalar uchun yer osti tunneli qurilishi boshlandi.

Avtomobil yo'lining shu qismida svetofor va piyodalar uchun 2 ta yo'lak tashkil etilgan bo'lib, piyodalar uchun ko'pligi va ziyoratgohga keluvchilarning soni oshib borayotganligi sababli yer osti yo'li qurilishi zarur edi. Chunki yo'lni kesib o'tishda qo'pol qoidabuzarliklar sodir bo'layotgan edi. Viloyat hokimining tashabbusi bilan bu xayrli ishga qo'l urildi. Mazkur yer osti yo'lining uzunligi 42 metr, balandligi 2,5 metr, eni esa 4 metrni tashkil etadi.

«O'zyo'lko'pri» klasteri Samarqand filiali davlat muassasasining ishchilari tomonidan qurilayotgan yer

osti tunnelida piyodalar yo'lagidan tashqari nogironlar uchun liftlar ham o'rnatiladi. Tunnel qurilishi zamonaviy texnologiyalar asosida tayyor temir - beton konstruksiyalar yordamida amalga oshiriladi.

- Kuniga 40 ga yaqin quruvchi va 10 ta maxsus texnika yordamida qurilish ishlari jadal davom ettirilmoqda, - deydi «O'zyo'lko'pri» klasteri Samarqand filiali davlat muassasasi ish boshqaruvchisi Nurali Jamurodov. - Hozirda ikki tomondan ham 10 metrlik piyodalar yo'lagi uchun zinapoyalar qurib bo'lindi. Endi yo'lak uchun yer ostini teshib o'tish, kovlash va tuproq tashish ishlari boshlanyapti.

Tepasidan kuniga 20 mingga yaqin avtomobil va 3 mingga yaqin piyodalar harakatlanuvchi yer osti yo'lagi mart oyining ilk o'n kunligida foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan.

Dilmurod TO'XTAYEV.

## TAYINLOV



**Ibodullayev Mannob**

**Mahmatmurodovich** -

Samarqand

teleradiokanalni direktori

etib tayinlandi.

M.Ibodullayev

«Zarafshon» gazetasida

faoliyat boshlab,

keyinchalik viloyat

hokimi matbuot

kotibi, viloyat

axborot va ommaviy

kommunikatsiyalar

boshqarmasi boshlig'i

vazifalarida ishlagan.



Samarqandda elektr ta'minoti  
barqarorligi uchun megaloyiha  
amalga oshirilmogda



Toshkent - Samarqand yo'nalishida  
quriladigan yangi zamonaviy  
avtomagistral yo'lining loyihaviy tezligi  
soatiga 150 kilometr bo'ladi



Urgutda yana bir xorijiy investor  
faoliyat boshladi



Past Darg'om tumanida sudya pora  
bilan ushlandi



# Imkoniyat bor, natija va mas'uliyat-chi?



**O'zbekiston Respublikasi Sport vaziri Adham Ikromov boshchiligidagi ishchi guruh viloyatdagi sport ta'lim muassasalarining holati, sportchilarga yaratilgan sharoitlar, seleksiya ishlari hamda shu yil Samarqandda o'tkaziladigan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga tayyorgarlik jarayonlarini o'rgandi.**

Dastlab Samarqand shahridagi 2-son sport maktabi faoliyati va muassasaga qarashli og'ir atletika zalida mashg'ulot jarayonlari, sportchilar uchun yaratilgan sharoitlar, "Tashabbusli budjet" mablag'lari asosida mukammal ta'mirlangan ushbu majmua-ning jihozlanish holati ko'zdan kechirildi. Shuningdek, "Nafis" sport majmuasida quriladigan kamondan o'tish markazi loyihasi mas'ullar ishtirokida muhokama qilindi. Shundan so'ng ishchi guruh a'zolari Samarqand shahrida zamonaviy moddiy-texnika va o'quv-mashg' bazasiga ega bo'lgan hududiy gimnastika sport turlariga tayyorlash markazining qurilish-mon-taj ishlarini ko'zdan kechirdi.



Viloyat sport boshqarmasi boshlig'i Jasur Nurmonovning ta'kidlashicha, Prezident qarori asosida barpo etilayotgan ushbu markaz sport zal, besh qavatli yotoqxona, oshxona hamda ma'muriyat binosidan iborat bo'ladi. Inshoot Samarqand, Buxoro, Navoiy, Jizzax, Qash-qadaryo va Surxondaryo viloyatlari uchun xizmat qiladi. Yoshlar badiiy gimnastika, sport gimnastikasi, sport akrobatikasi va trampolin bilan shug'ullanadi. Markazga 7 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan 132 nafar iqtidorli o'quvchi-sportchi qabul qilinadi. O'qish muddati 11 yil bo'lib, har yili 12 nafardan o'quvchi qabul qilinadi va bitiruvchilarga gimnastika sport turlari murabbiyi mutaxassisligi beriladi.

"Agromir Buildings" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan qurilish ishlari olib borayotgan markazning yotoqxona va yuvinish xonalarini jihozlashda shug'ullanuvchilar-ning yosh toifasini hisobga olish, qurilish ishlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish bo'yicha mas'uliyatlariga javob beriladi.

Sport vaziri shu yil 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasida o'tkaziladigan "Silk Road Samarkand" xalqaro turizm markazida bo'lib, shaxmatchilar uchun qulay sharoit yaratish, hududni musobaqa talablari darajasida jihozlash kerakligini ta'kidlaydi. O'rganish davomida Toyloq olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi faoliya-ti, Toyloq hamda Samarqand tumanlari 1-son sport maktablarining moddiy-texnik bazasi, murabbiylar salohiyati, sportchilarga yaratilgan sharoitlar, erishilgan natijalar va seleksiya ishlari tanqidiy baholandi.

Samarqand tumanida Turkiya, Germaniya, Rossiya, Xitoy, Italiya davlatlari texnologiyalari yordamida 40 dan ziyod sport jihozlari ishlab chiqarilayotgan "Stekloplastik" korxonasi faoliyati bilan ham tanishilib, viloyatdagi oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarning sport bilan shug'ullanishi uchun yaratilgan sharoitlar, oliyoghlarda tashkil etilgan sport klublari faoliyati o'rganildi. Aniqlan-gan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida viloyat hokimligida viloyat hokimi Adiz Boboyev hamda Sport vaziri Adham Ikromov boshchiligidagi sport sohasi vakillari ishtirokida yig'ilish o'tkazildi.

Sport ta'lim muassasalari, sport federatsiyalari, hamkor tashkilotlar, oliy ta'lim, maktabgacha va maktab ta'limi tizimi mas'ullari hamda tuman (sha-har) hokimliklari vakillari ishtirok etgan yig'ilishda sohadagi muammolar atroflicha muhokama qilinib, viloyatda sportni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar tanqidiy tahlil qilindi. Xususan, o'tgan yil o'tkazilgan "Prezident olimpiadasida" sport musobaqalarida viloyat sportchilari erishgan natijalar qoniqarsiz ekani qayd etildi.

- Viloyatdagi ikkita olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi va yana bir nechta sport muassasalari qoniqarsiz faoliyat yurit-moqda, - dedi Adham Ikromov. - Respublikamizning aksariyat hudud-larida bunday markazlar soni bitta va bu borada Samarqand yetak-chi. Ammo bugun markazlar talab darajasida faoliyat yuritaypti, deb bo'lmaydi. Misol uchun, o'tgan yil o'tkazilgan "Prezident olimpiadasida" musobaqalarida Toyloq olimpiya markazi sportchilari birorta sport turi bo'yicha oltin medalni ko'lga kiritmagan.

Yig'ilishda ushbu muassasa direktori ishdan olingani ma'lum qilingan bo'lsa, Samarqand shahridagi olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi rahbariga ogohlantirish berildi. Muuloqot davomida "Besh tashabbus olimpiadasida"ning 2026-yilgi mavsumiga start berilgani, musobaqa nizomiga kiritilgan o'zgarishlar hamda ommaviy targ'ibot masalalari taqdimot ko'rinishida tushuntirildi. Mazkur olimpiadaning o'tgan yilgi mavsumida Samarqand viloyati birinchi o'rin-ni egallagan, bunda mahalladagi yoshlar yetakchilarining xizmati kattaligi alohida ta'kidlandi. Xususan, sport muso-baqalarida mahalla yoshlarining faol ishtirokini ta'minlab, ularning yuqori natajalarga erishishiga hissa qo'shayotgan Paxtach tumanidagi beshta mahallaga birlashtirilgan tren-er-seleksioner Sanjar Xolmurodov, faol yoshlar yetakchi-lari va mahalla faollari o'z tajribasi bilan o'rtoqlashdi.

Yig'ilish yakunida mas'ullarga ommaviy sportga qam-rovni oshirish, yoshlarni musobaqalarga keng jalb qilish, elektron ro'yxatga olish tizimida shaffoflikni ta'minlash bo'yicha aniq ko'rsatma va vazifalar belgilab berildi.

**Fazliddi RO'ZIBOYEV.**

**Joriy yilning 24-fevral kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar bilan ochiq va samimiy muloqot o'tkazdi. Tadbirda ilgari surilgan tashabbuslar – ta'lim, kasb-hunar, tadbirkorlik, innovatsiya va volontyorlik yo'nalishlaridagi aniq va tizimli qarorlar ertamiz egalarining ulkan salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qilishi shubhasiz.**

Savol tug'ilish tabiiy – shu paytgacha yaratilgan imkoniyatlar, berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan nimalar qilindi?

Avvalo, qayd etish o'rinli, viloyatimiz 4,3 million aholisining 2,3 million nafarini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi.

O'tgan yil mehnat bozoriga yangi kirib kelgan 88 ming 707 nafar bitiruvchilarning bandligini ta'min-ladik. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ushbu yo'nalishda bandligini ta'min-lash maqsadida 7 ming gektar yer 20 ming nafar yoshlarga berilgani natijasida ular 28,3 ming tonna mahsulot yetishtirib, 280 milliard so'm daromad olishdi.

Tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida esa 21 ming 115 nafar yoshlarga 691,4 milliard so'm kreditlar ajratilib, 22 ming-dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

Misol uchun, Urgut tumani Quyi Torin-jak mahallasida yashovchi Fazliddin

Salimov erkaklar ustki kiyimlari ishlab chiqarishni yo'lga quyish maqsadi-da 2,6 milliard so'm kredit olib, 40 kishining bandligini ta'minladi.

Samarqand shahar Obod Sharq mahallasida Temur Odilov 500 million so'm kredit hisobidan bolalarga

logoped xizmatlarini tash-kil etdi va 20 ta yangi ish o'rni yaratdi.

O'tgan yili shuning-dek, 8 ming 264 nafar yoshga 30 dan ortiq kasb-hunar o'rgatilgan kasb-hunar platforma-lar orqali 4 ming 405 nafar yigit-qiz zamonaviy kasblarga o'qitildi.

Xorijiy tillar bo'yicha xalqaro imtihon tizimlaridan C1 dara-jasidagi sertifikatga ega bo'lgan 1 ming 85 nafar yoshlarning 2,3 milliard so'mlik imtihon xarajatlari qoplab berildi. Joriy yil yakuniga qadar xorijiy tillarni o'rganishga qiziqishi bor 70 ming o'g'il-qizlari-miz "Ibrat farzandlari" loyihasi orqali o'qitildi.

Darvoqe, yil boshida 9 ming 630 nafar ishsiz, "og'ir" toifadagi yoshlar-ning manzilli ro'yxati shakllantirildi. Ular viloyatdagi 578 nafar rahbarlarga nomma-nom biriktirildi. O'tgan davr mobaynida ularidan 3212 nafari yoki 33,4 foizining bandligi ta'minlandi. Ro'yxatdagi qolgan yoshlar bilan manzilli ishlar davom ettirilib, bandligini to'liq ta'minlash choralari ko'rilmogda.

Tahlillarga ko'ra, ishsiz yoshlarning 2382 nafari 17-21 yoshdagilar ekan. Shuni hisobga olib birinchi navbatda ularni oliy ta'lim bilan qamrab olish, kasb-hunarga va xorijiy tillar-ga o'qitish orqali doimiy ish bilan band qilish ko'zda tutilmogda.

To'g'ri, joriy yilda yana 80 ming 561 nafar yigit-qizlar mehnat bozoriga kirib keladi. Jum-ladan, oliy ta'lim muassasalarini 12 ming 174 nafar, kasbiy ta'lim muassasalarini 19 ming 817

**Bu yil Ramazon oyi munosabati bilan davlatimiz rahbari ehtiyojmand aholini davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qaror qabul qildi.**

Qarorga ko'ra, ijtimoiy re-estring "davlat ta'minotidagi oila" toifasidagi oilalarga, o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksa-lar va nogironligi bo'lgan shaxslar reestridagi fuqarolarga, shuning-dek, yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar yashayotgan oilalarga 1 million so'mdan bir martalik moddiy yordam ko'rsatilishi belgilan-gan. Ijtimoiy reestring "kambag'al oila" toifasidagi oila hamda "mahalla yetiligi" tomonidan shakllantirilgan qo'shimcha ro'yxatdagi ehtiyojmand oilalarga esa 500 ming so'mdan bir martalik moddiy yordam beriladi. Shuningdek, ijtimoiy reestrda-gi oilalarning bemor oila a'zolarining davolanishi va jarrohlik amaliyoti o'tkazish bilan bog'liq xarajatlari ham qoplab beriladi.

– Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida te-gishli tashkilotlar bilan birga zarur chora-tadbir-lar dasturini ishlab chiqqanmiz, – deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi bosh-lig'i Sherali Yo'ldoshev. – Avvalo, boshqarmada hamkor tashkilotlar mas'ullaridan iborat shtab faoliyati yo'lga qo'yildi. Aholidan kelib tushadigan

# BEKORCHI YOSHLAR BO'LMAYDI

buning uchun imkoniyat ham, sharoit ham yetarli



nafar, maktablarni 48 ming 570 nafar bitiruvchi tamomlaydi.

Shundan 39 ming nafari, ya'ni 49 foiz bitiruvchilar ta'limning keyingi bosqichi-ga qamrab olinadi. Qolgan 41 ming nafari bilan manzilli ishlab, yil yakuniga qadar ularning bandligini ta'minlaymiz.

Ayni paytda viloyatda 11 mingdan ortiq vakant ish o'rinlari mavjud. Yil yakuni-gacha yana 96 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Bundan tashqari, viloyatda 60 ga yaqin kasb-hunar o'quv kurslari va 6 ta monomarkazda 2,5 ming nafar yigit-qizlar o'qimoqda. Yil yakunigacha 10 ming-ga yaqin bitiruvchilar kasb-hunar o'rganadi. Viloyat bo'yicha mingdan ortiq xorijiy tillarga o'qitish kurslari faoliyat olib bormogda.

Shu raqamlarning o'zi ishsiz yoshlarimizning doimiy bandligini ta'minlash uchun imkoniyat yetarli ekanini ko'rsatadi.

Yoshlar bandligi masalasida gap ketganda tabiiyki, texnikumlar haqida to'xtal-maslikning iloji yo'q. Chunki keyingi yillarda bu muassasalar qisqa muddatda zamon talablariga mos o'rta mutaxassislarni tayyorlab berayotgani bilan muhim ahamiyat kasb etmogda.

Misol uchun, Ishtixon tumanida Xitoy Xalq Respublikasi bilan hamkorlikda Sa-marqand xalqaro texnikumi tashkil etildi. Bungacha Ishtixon 1-son texnikumining 66 nafar o'quvchisi Xitoyda 3 oy ishlab chiqarish amaliyotini o'tab qaytdi. Hozirda ushbu texnikumda 300 nafarga yaqin yoshlar saralab olinib, Xitoy bilan hamkorlik-da o'qish jarayonini boshlash arafasida.

Shu bilan birga, viloyatdagi texnikumlarda Germaniyaning (GIZ) tashkiloti bilan hamda Buyuk Britaniya, Koreya va Belarus davlatlarining ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda hududda ehtiyoj yuqori bo'lgan axborot texnologiyalari, turizm, payvandlovchi, elektromontyor, logistika, metallar texnologiyasi, hamshirilik kasbi bo'yicha mingga yaqin o'quvchi o'qitilmogda.

Shuningdek, yana 7 ta texnikumda xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda 14 ta kasb bo'yicha xalqaro va qo'shma ta'lim dasturlari joriy etiladi.

Umuman, hududlar kesimida tahlil qilib chiqib, ishsiz yoshlar eng ko'p bo'lgan Urgut tumani (1674 nafar) bo'yicha alohida ishlarni reja qilib oldik. Jumladan, tu-mandagi 1300 o'rinni 1-son texnikum binosi mahalliy budjet hisobidan zamonaviy usulda ta'mirlanadi. Kasbiy ta'lim agentligi texnikumni zamonaviy jihozlar bilan jihozlaydi.

Texnikumda qisqa muddatli kurslarda 4 mingga yaqin yoshlar kasb-hunarga o'qitiladi.

Ertamiz egalarining bandligini ta'minlash va ularning salohiyatini yuksaltirish bo'yicha aniq rejalar ishlab chiqilgan. Shu asosda viloyatimiz yoshlarini mehnat bozori talablariga mos malakali mutaxassis etib tayyorlash, ularni daromadli faoli-yatga yo'naltirish bo'yicha amaliy natija beradigan tizimli ishlar tashkil etilmogda.

**Husan TO'XTAYEV,**  
viloyat hokimi o'rinbosari.

# Ramazon oyida 83 mingdan ortiq oilaga moddiy yordam berilmogda



murojaatlar va savollarga o'z vaqtida javob berish uchun "Call markaz" tashkil etildi. Viloyatning barcha tuman (shahar)lardagi aholining ehtiyojmand qatlami-ga bir martalik moddiy yordam berilishi yuzasidan 83 ming 285 ta xabarnoma flaer hamda jarrohlik amaliy-oti o'tkazilishi va davolash bo'yicha oilalarga vaucher yetkazildi. Hozirda viloyatdagi moddiy yordam ajrati-lishi rejalashtirilgan 83 ming 285 ta oilaga jami 55,7 milliard so'm mablag' to'lab berilmogda.

Hududiy hokimliklar hamda xalq deputatlari ma-halliy kengashlari, ijtimoiy himoya milliy agentligi va sog'liqni saqlash xodimlari tomonidan taqdim etilgan ro'yxat asosida ehtiyojmand 767 nafar fuqa-roda yuqori texnologik tibbiy muolajalar o'tkazilishi rejalashtirildi. Dastlabki bosqichda 112 nafar fuqaro

ro'yxati shakllantirilib, MISS SSV elektron dasturiga kiritildi va ularga vaucherlar tarqatildi.

Narpay tumanida yashovchi A.Berdikulov ancha vaqtdan buyon son suyagi yemirilishi xastaligidan azi-yat chekardi. Bu yilgi Ramazon oyi kunlarida u ushbu darddan forig' bo'ldi. Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand filialida uning son suyagini endo-protezlash operatsiyasi muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Kattaqo'rg'on tumanida yashovchi, 2008-yil tug'il-gan O.Nasriddinova esa operativ davolanishi uchun Samarqand viloyat bolalar ko'p tarqmoqli tibbiyot markaziga yotqizilib, unda endoskopik polipotimiya operatsiyasi amalga oshirildi.

**A.ISROILOV.**



(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

#### DAFTARDAGI AYOLLAR BO'STONLIQQA NEGA JO'NATILDI?

O'tgan yili ehtiyojmand oilalar qiz farzandlarining 727 nafariga, 5 yillik mehnat stajiga ega bo'lgan, oliy ma'lumoti bo'lmagan xotin-qizlarning 249 nafari muassasalariga o'qishga oliy ta'limga kirishlari uchun tavsiyanoma berildi.

Shuningdek, 2025-2026-o'quv yili uchun 130 nafar ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning to'lov-kontrakti to'lab berildi.

O'tgan yilda 145 ming 268 nafar xotin-qizlarning bandligini ta'minlashga erishildi.

Shuningdek, 32923 nafar xotin-qizlar kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitildi. Ularning 13 39 nafari kasb-hunarga o'qitilgan bo'lsa, tadbirkorlik va moliyaviy savodxonlikka o'qitilganlar 8978 nafarni tashkil etdi. Xavfsiz migratsiya tamoyili asosida xorijiy til va kasb-hunarga o'qitilganlar 2806 nafar bo'ldi. Shuningdek, daraxt va gul ko'chatlarini yetishtirish bo'yicha o'qitilganlar soni 1040 nafarga yetdi.

1604 nafar xotin-qizning tadbirkorlik loyihalari qo'llab-quvvatlandi. 2109 nafar ehtiyojmand xotin-qiz lder tadbirkor ayollarga biriktirildi. Shuningdek, xorijdan vatanga qaytarilgan xotin-qizlardan 24337 nafarining bandligi ta'minlandi.

O'tgan yili respublika oila va xotin-qizlar qo'mitasi tashabbusi bilan xayrli bir ishga qo'l urildi. "Ayollar daftari"ga kiritilgan 2250 nafar xotin-qiz Bo'stonliq tumanida joylashgan dam olish maskanida bo'lib, psixologik yordam ko'rsatish va tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha motivatsion seminar-da ishtirok etishdi. Buni qarangki, bu tashabbus ham o'zini rivojlantirish, bilim olish bilan bog'liq. Lekin uning ta'siri juda ahamiyatli bo'ldi. Ushbu trenin-

## AYOL DOIMY E'TIBORDA BO'LISHI KERAK

glarda qatnashib kelgan ayollar juda ko'p narsalarni o'rgangani, hayotini butunlay yangicha bir tahlil etganini aytishdi. Bu tajriba bu yil ham davom etadi, qamrov kengayadi.

#### OQDARYO TAJIRIBASI YARATILDI

Afsuski, hayot bir tekis emas, uning turli sinovlaridan o'tishga to'g'ri keladi. 2025-yil yakunida viloyatda oilaviy ajrimlar avvalgi yilga nisbatan 203 taga, ya'ni 4,4 foizga oshdi.

Ajrimlar 6 ta tuman va shaharlarda kamaygan bo'lsa, boshqalarida oshgan. Oilaviy ajrimlarning oldini olishda Oqdaryo tajribasi yaratildi. Bu tajribaning mohiyati nimada?

2024-yil ajrim eng ko'p qayd etilgan Oqdaryo tumaniga Samarqand davlat universitetining malakali psixolog-trenerlari tomonidan tizimli tarzda seminar-trening o'tkazildi. Buning natijasida o'tgan yil ajrim yoqasidagi 205 ta oilaning 195 tasi yarashtirilib, sog'lom muhitga qaytarildi. Ushbu seminar-treningga Samarqand davlat



universitetining psixologlaridan tashqari tuman "Oqila ayollar" harakati a'zolari ham jalb etilib, oilaviy ajrimlarning oldini olishga munosib hissa qo'shildi.

Viloyatning barcha tuman va shaharlarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilaviy nizolarning oldini olish hamda xotin-qizlarga huquqiy, tibbiy va

psixologik yordamlar ko'rsatish maqsadida "Oila va xotin-qizlar maskanlari" faoliyati yo'lga qo'yildi. Hokimliklar bilan hamkorlikda markazlar joy bilan ta'minlandi va xotin-qizlar uchun zarur sharoitlar yaratildi.

#### IKKI MINGGA YAQIN NIZO BARTARAF ETILDI

Xotin-qizlarni zo'rvonlikdan himoya qilish bir nechta tizim hamkorligida chuqur o'rganilgan holda olib borilmoqda. Xotin-qizlarning bilim darajasi oshayapti va darhol tegishli idoralarga murojaatlar ko'paymoqda. Shuning uchun himoya orderlari berilish holati yildan-yilga ko'paymoqda. To'g'ri, bu xursand bo'ladigan ko'rsatkich emas. Ammo yillar davomida maishiy zo'rvonlikdan qiynalib, alamini yutib, nafaqat oilasi, butun jamiyatga ziyon yetadigan holatlar, jinoyatlarning ko'payganidan ko'ra, uning oldini olgan afzalroq. Himoya orderlari mana shunday profilaktika o'rni ni o'tamoqda.

O'tgan yili tazyiq va zo'rvonlikka uchragan 4426 nafar xotin-qizlarga himoya orderlari berildi. Bu 2024-yilga nisbatan 2199 taga ko'pdir.

Tazyiq va zo'rvonlik holatlari Qo'shrabot tumani-da 39 taga, Kattaqo'rg'on shahrida 15 taga, Buloq'ur tumanida 8 taga kamaygan. Himoya orderi berish natijasida 2143 ta oila yarashtirildi, 1993 ta holatda nizo bartaraf etildi.

Aslida har bir oilaning o'z himoya orderi bo'lishi kerak. Bu – ta'lim-tarbiya, odob-axloq, qadriyatlarining avaylab-asralgan holda avlodlarni avlodga o'tishi kabi fazilatlar hamda oila kattalarining bu masalaga jiddiy e'tiboridir. Oila va xotin-qizlar boshqarmasi, uning mutasaddilari oiladagi shu fazilatlarini asrab qolishni targ'ib qilish barobarida, turli masalalarda ularga ko'mak ko'rsatishni asosiy vazifasi deb biladi.

**Zebo SAIDOVA,**  
**viloyat hokimi o'rinbosari – oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i.**

## AYOLLAR va BOLALAR

## XAVFSIZLIGI:

### YANGI FARMON NIMANI O'ZGARTIRADI?

Davlatimiz rahbari tomonidan ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan "Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik holatlarining oldini olish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to'g'risida"gi farmon imzolandi. Hujjat mazmunan qattiqqo'l jazo choralari bilan birga profilaktika, ta'lim va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni uyg'unlashtirgani bilan ahamiyatlidir. Bu farmon nima uchun muhim? U jamiyat hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

#### ERTA NIHOH – IJTIMOY MUAMMODAN HUQUQY NAZORATGA

So'nggi yillarda erta nikoh holatlari keskin kamaygani aytilsa-da, ayrim hududlarda muammo saqlanib qolmoqda. Yangi farmon bu masalaga tizimli yondashuvni joriy etadi.

Endi erta nikoh yoki 16 yoshgacha bo'lgan homiladorlik holatlari haqida xabar berish majburiy tartibga aylanadi. Mahalla, FHDY, ta'lim va tibbiyot muassasalari, hatto diniy idora vakillari ham bu borada mas'ul hisoblanadi. Xabar bermaslik javobgarlikka sabab bo'ladi.

**Bu yondashuv ikki muhim  
natijaga olib kelishi mumkin:**

- yashirin holatlar (latentlik) kamayadi;

- jazo muqarrarlari

ta'minlanadi.

Shu bilan birga, 2027-yildan boshlab

21 yoshdan keyin nikoh tuzgan yosh oilalarga qo'shimcha imtiyozlar berilishi davlat faqat cheklash emas, balki ongli nikohni rag'batlantirish yo'lini tanlaganini ko'rsatadi.

#### "IKKINCHI IMKONIYAT" – YOSH ONALAR UCHUN MUHIM QADAM

Farmonning ijtimoiy ahamiyatli jihatlardan biri homilador talaba-qizlar va yosh onalar uchun ta'limni davom ettirish imkoniyatlarining kengaytirilishidir.

**Endi:**

- kursdan qolgan talabalarga o'qishni tiklash imkoni beriladi;

- masofaviy ta'lim shakli kengaytiriladi;

- akademik ta'lim davrida ham o'qishni onlayn davom ettirish imkoniyati yaratiladi.

Bu qaror ayolning taqdiri faqat erta turmush bilan cheklanib qolmasligi, uning ta'lim olish va kasb egallash huquqi ustuvor ekanini anglatadi.

#### ZO'RAVONLIKKA QARSHI YANGI BOSQICH

Farmon zo'rvonlikka qarshi kurashishni ham yangi bosqichga olib chiqadi.

**E'tibori jihatlar:**

- *himoya orderi berilgan ayollar uchun "SOS" mobil xizmati joriy etiladi;*

- *jinsiy jinoyatlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov vakolati faqat prokuraturaga o'tadi;*

- *voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyatlar uchun jazo choralari yanada og'irlashtiriladi, bunday ishlar maxsus tayyor-garlikdan o'tgan tergovchi va sudyalarning tomonidan ko'riladi.*

Bu zo'rvonlikni "oilaviy masala" emas, balki jamiyat xavfsizligiga tahdid sifatida baholash siyosati mustahkamlanayotganini anglatadi.



#### YANGI TAHIDDLAR: KIBERZO'RAVONLIK VA STALKING

Hujjatda femitsid, stalking, kiberso'rvonlik va onlayn-gruming kabi zamonaviy xavf-xatarlar uchun javobgarlik belgilash bo'yicha takliflar ishlab chiqilishi nazarda tutilgan.

Bu esa huquqiy tizim raqamli makondagi tahdidlarga ham javob qaytara boshlaganini ko'rsatadi.

#### PROFILAKTIKA – ASOSYI USTUVORLIK

Farmonda "maishiy zo'rvonliksiz baxtli oilaviy hayotga tayyorlash" kurslarini 2030-yilgacha 100 foiz qamrovga yetkazish vazifasi qo'yilgan.

Bu nimani anglatadi?

Davlat muammoning oqibati bilan emas, sababi bilan kurashmoqda. Ya'ni, huquqiy madaniyatni oshirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, jamiyatda zo'rvonlikka nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha ish olib boriladi.

#### JAZO VA HIMOYA O'RTASIDAGI MUVOZANAT

Yangi farmon faqat jazo choralari ni kuchaytirish bilan cheklanmaydi. Unda rag'batlantirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ta'lim, raqamli nazorat va profilaktika choralari uyg'unlashgan.

Eng muhimi, ayollar va bolalar xavfsizligi davlat siyosatining markaziga chiqarilmoqda.

Agar belgilangan chora-tadbirlar amalda to'liq va samarali iro etilsa, bu hujjat nafaqat huquqiy islohot, balki jamiyat tafakkurini o'zgartirishga qaratilgan strategik qadam sifatida tarixda qolishi mumkin.

**Otabek TOSHNIYOZOV,**  
**Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning viloyatdagi mintaqaviy vakili.**



#### Farzandlari bilan halol daromad topayotgan Maqsuda ona haliyam mehnatdan qochmaydi. Shuning uchun ham farovonlikda yashasa ajabmas.

Suyagi mehnatda qotgan, turli tashkilotlarda ishlab pensiyaga chiqqan Maqsuda ona Namozova bundan uch yil oldin o'z hovlisidagi 7,5 sotixli maydonda issiqxona qurish-

ga kirishdi.

- Bu yerda ilgari teraklar ekilgan edi, - deydi Maqsuda ona. - Teraklarni kesib olib, uning o'rnida issiqxona tashkil etdik. Dastlab 76 tup limon ko'chati ekdik. Mahalliy o'g'itlar bilan oziqlantirilgan ko'chatlar hosili ko'rgan ko'zni quvotiradi.

Issiqxona daromadi hisobidan uylari zamon talablari asosida ta'mirlandi. Voyaga yetgan farzandlari - ikki nafar o'g'il va bir nafar qizi oliygohlarda ta'lim olishdi.

O'tgan yil hovlida 50 dona quyosh paneli o'rnatildi. Bu ham oilaga har

oyda 4,5-5 million so'm daromad keltirmoqda.

- Halol mehnatimiz evaziga farovon yashayapmiz, - deydi Maqsuda ona. - Tovuq yetti xazinaning biri deb bekorga aytilmagan ekan. Hovlida parvarishlanayotgan 200 ta tovuqdan kuniga 60-70 dona tuxum olamiz. O'n tupdan ortiq turli xil mevali daraxtlar, boqilayotgan hisori qo'yilar ham turmushimiz faravonligiga xizmat qilyapti. Bularning hammasiga o'zimizning halol mehnatimiz bilan erishganmiz.

**Rabbim HOTAMOV.**

## Matonat va iroda timsoli

#### Qat'iyat va ishonch bilan yashashni o'z hayotiy shioriga aylantirgan para shaxmatchi Munisa Toshmamatovaning hayot yo'li har bir yosh uchun ibratdir. Uning shijoati, sabri, intilish va maqsadlaridan o'rnak olsa, arziydi.

Munisa Toshmamatova 2003-yilda Nar-pay tumanida tug'ilgan. Ilk ta'limni tumandagi 49-umumta'lim maktabida olgan. Keyinchalik Samarqand shahridagi ko'zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashgan 59-maktab-internatida o'qigan. U "Besh tashabbus para olimpiadasi" musobaqalarida shaxmat bo'yicha uch karra respublika chempionligini qo'lga kiritib, murabbiylik maqomiga erishgan. Hozirda Toshkent davlat texnika universitetining birinchi bosqich talabasi.

- Allohning irodasi ekan, ko'zimdagi nuqson sabab hayotimda ayrim qiyinchiliklar bo'lgan, lekin tushkunlikka tushmaganman, - deydi Munisa Toshmamatova. - Chunki o'zimni imkoniyati cheklangan deb hisoblamayman. Aksincha, yanada kuchli bo'lishga, o'z ustimda ishlashga harakat qilaman. Ota-onam va ustozlarimning qo'llab-quvvatlashi orqali o'zimga bo'lgan ishonchimni yo'qotmayman. Faoliyatimga kelsak, shaxmat sirlarini onamdan o'rganganman. Onam shaxmatni mahorat bilan o'ynaydi va uning o'yinini kuzatib, menda ham bu sport turiga qiziqish uyg'ongan. Dastlab bu men uchun oddiy mashg'ulot edi. Keyinchalik shaxmat nafaqat o'yin, balki tafakkurni charxlovchi, sabr-toqat va fikrlashni talab qiladigan sport turi ekanligini angladim. Shu yo'lda jiddiy shug'ullanib, para shaxmat musobaqalarida qatnasha boshladim.

O'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan musobaqalarda bir necha marta g'olib bo'lganman. 2024-yilda "Matonat" marafoni doirasida o'tkazilgan xotin-qizlar kubogi respublika musobaqasida birinchi o'rinni egalladim. 2024-2025-yilgi "Besh tashabbus para olimpiadasi"da ikki karra chempion bo'ldim va o'zim tug'ilib o'sgan Totkent mahallasi Yonariq



qishlog'ida universal sport maydonchasi qurib berildi. Mushkent mahallasida esa ikkinchi sport maydonchasi shu yil barpo etiladi. Rostini aytсам, sport bilan shug'ullanishga imkoniyat bo'lmagan mahallalarda mening yutuqlarim tufayli sport maydonchalari barpo etilayotgani men uchun katta faxr. Bu ishlar yoshlarni sog'lom turmush tarziga jalb etishga xizmat qilayotganidan mamnunman. Hozirda para shaxmat bo'yicha murabbiydan va o'zim tahsil olgan 49-maktabda tashkil etilgan to'garakda yoshlarga shaxmat sirlarini o'rgatib kelyapman. Kelgusida terma jamoaga qabul qilinib, xalqaro musobaqalarda yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarishni maqsad qilganman.

- Besh nafar farzandimiz bor, Munisa beshinchisi, - deydi Munisa Toshmamatovaning onasi Yulduz Nur-mamatova. - Qizim yoshligidan biroq erkarroq o'sgan. Lekin biror maqsadni ko'zlasa, unga erishmaguncha harakatdan to'xtamaydi. Bolaligidan shaxmat o'ynashni o'rgangandi. Hozir esa musobaqalarda faxrli o'rinlarni egallab, yuzimizni yorug' qilmoqda. O'tgan yil mustaqil tayyorlanib, oliygohga ham o'qishga kirdi. Albatta, bu yutuqlarning barchasini yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar samarasi, deb bilaman.

**Fazliddin RO'ZIBOYEV.**



## O'ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI FEDERATSIYASINING SAMARQAND VILOYATI KENGASHI:

Mo'tabar onajonlarimiz,  
mehribon ayollarimiz va  
aziz opa-singillarimizni

# 8-mart —

Xalqaro xotin-qizlar kuni

bilan qutlaydi.



## O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH XODIMLARI KASABA UYUSHMASI SAMARQAND VILOYAT KENGASHI



tibbiyot sohasida

mehnat qilayotgan

barcha xotin-qizlarni

# 8-mart —

Xalqaro xotin-qizlar kuni

bilan muborakbod etadi.

Bahor vago'zallik bayrami  
xonadoningizga  
olam-olam quvonch keltirsin,  
yuzingizdan tabassum  
arimasin, aziz opa-singillar!

## "URGUT SAVDO KOMPLEKSI"

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI JAMOASI

aziz opa-singillarimiz va mehribon onaxonlarimizni

# 8-mart —

Xalqaro xotin-qizlar kuni

bilan tabriklaydi.



Barchangizga sihat-salomatlilik,

go'zallik va oilaviy baxt

tilaymiz!

Xizmatlar litsenziyalangan.

### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand viloyat ilmiy tibbiyot kutubxonasi boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasi boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasining 2026-yil 8-yanvardagi umumiy yig'ilishi 01-sonli qaroriga asosan ixtiyoriy ravishda tugatilmoqda.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha e'tirozlar gazetada e'lon chop etilgach, ikki oy davomida qabul qilinadi.

**Boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasining pochta manzili:** O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati Samarqand shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 72-"A" uy.

Boshlang'ich kasaba uyushma qo'mitasining soliq to'laydigan identifikatsion raqami (STIR): 207153804.

Urgut tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xursandov Furqat Abdusattorovich notarial idorasida marhum To'raqulova Mayramga (2015-yil 9-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xursandov Furqat Abdusattorovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Urgut shahri Navoiy shohko'chasi.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarida marhum Samarov Shahriddin Mahamatovichga (2025-yil 10-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Tuxtamuratov Salim Kuliyevichga (2026-yil 20-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 1-uy, 3-xona.**

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Buriyev Sayfiga (1993-yil 24-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Ergashev

Terkashga (1996-yil 7-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.**

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Jumanov Suyunga (2014-yil 2-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Eshonqulov Amir Arorovichga (2022-yil 24-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi 200-uy 3-xona.**

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasida marhum Azimov Olimjon Gadayevichga (2025-yil 15-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.**

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Pardayev Mehridin Muhiddin o'g'li notarial idorasida marhum Utayev Xolboy Yaxshiboyevichga (2025-yil 12-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Pardayev Mehridin Muhiddin o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Narpay tumani "Alisher Navoiy" MFY, Amir Temur ko'chasi.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Nazarqosimov Abdixoxrga (2024-yil 22-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq ko'chasi, 76-uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Eshbo'tayev Abduqobil Mutalovichga (2018-yil 11-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq ko'chasi, 73-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Gulyamov Taxir Aliyevichga (2006-yil 24-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-"B" uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasida marhum Shodiyev Oblokul Baratovichga (2025-yil 20-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurrahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasida marhum Kazimova Tuxtabonu Gulyamxaydarovna (2025-yil 12-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qo'shatov Akbar Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 90-uy.**

**BEKOR QILINADI**  
Urgut tumanidagi "Chep" mahalla fuqarolar yig'ining (STIR: 202820491) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Payariq tumanidagi "SHODIYEV XUDAYORBEK CHORVASI" fermer xo'jaligining (STIR: 303268494) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Toshkent shahri Sergili tumanidagi "LAVEL UP TRAINING" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 312480505) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.



Azal-azaldan biz tomonlarda, ayniqsa, qishloq joylarida bekorch i odamning o'zi bo'lmagan. Ro'zg'or ishi hammani ovuntirgan: birov molni parvarishlasa, kimdir tomorqada ishlagan, yana birov hovlini tartibga keltirgan. Bir so'z bilan aytganda, mehnatni ehtiyoj deb bilganmiz. Shu sababli bo'lsa kerak, 75 yoshimda ham g'ayratimning cheki yo'q, biror ishni yakunlamagunimcha daladan ketgim kelmaydi.

Darvoqe, bu ko'nikma o'z-o'zidan paydo bo'lmagan. Ota-onamiz o'zlarini o'zlari uddalashgan, bobo-momalarimiz ham. Biz ana shu jarayonni ko'rib katta bo'ldik. Demoqchimanki, peshona teri evaziga topilgan daromad yuragingga huzur, hayotingga farovonlik bag'ishlaydi.

Davlatimiz rahbarining keyingi selektor yig'ilishlarida, Surxondaryodagi nutqlarini, mehnat ahli bilan muloqotlarini ko'rib, to'g'risi, faxrlandim. Negaki o'tgan tizimda biz o'zimizni uddalash uchun qanchalik harakat qilmaylik, rag'batini sezmaganimiz. Faqat mustaqillik bizga o'z-o'zimizning qadrimizga yetishimizga imkon berdi. Bugun esa mamlakat Prezidenti nafaqat tajribali mutaxassislar, balki endigina ish boshlagan tadbirkorlar, tadbirkorlikka havas qo'ygan o'g'il-qizlarga ham madad bo'lmoqda. Ota-bobolarimiz an'alarini, millatimizga xos fazilatlarini jonlantirishga intilmoqda.

Televideniye, radioda, gazetalarda har kuni biz uchun kerakli bo'lgan yangi axborotlarni eshitaman. Xususan, davlat siyosatining mahalaga, har bir xonadonga qaratilayotganligi meni quvontiradi. Chunki har bir inson, uning fazilati xonadonda, oilada, mahallada shakllanadi. Shu sababli ixtisoslashtirilgan mahallalarni tashkil etish, yetishtirilgan mahsulotlarni xarid qilish kabi choralar aholi turmush darajasining oshishi, farovonligini ta'minlamoqda. Ba'zan dehqonlarning xorijga 50-100 million dollar miqdorida quruq va ho'l meva eksport qilayotganligini eshitib, xursand bo'lamen. Axir biz qachon dunyoga bu qadar katta miqdorda mahsulot sotganmiz?

Tumanimizdagi ayrim yoshlar IT markazlarida o'z mahsulotlarini eksport qilib, davlat xazinasiga pul tushirmoqda. Bizning Narpay tumanimizda juda ko'p qishloq xo'jalik mahsulotlari Xitoy, Rossiya va boshqa mamlakatlarga eksport qilinayapti. Vaholanki, bu mahsulotlarimiz uzoq yillar davomida Siyob va Chorsu bozorlaridan nariga o'tmagan. Eksport uchun juda katta imtiyozlar, imkoniyatlar yaratilaypti. Xohlagan odam o'z mahsulotini chetga olib chiqib sotishi mumkin. Hatto tumanimizdagi issiqxonalarda yetishtirilgan

# O'ZBEKISTON — YERDAGI JANNAT



mahsulotlar ham bugun xorij bozorlarida xaridorgir.

Shularni o'ylayman-u yuragim g'ururga to'ladi. 1984-yildan buyon qishloq xo'jaligida ishlayman. Garchi hamshira bo'lsam-da ota izidan borib, yer bilan tillashishga jazm etdim. Buning uchun qishloq xo'jaligi institutida tahsil ham oldim. O'shandan buyon fermer xo'jaligini boshqaraman. To'g'ri, mustaqillik yillarida mehnatlarimga yarasha davlat mukofotlarini oldim. Lekin bir narsani unutmashlik kerak, bugun davlat tomonidan tarmoqqa ko'rsatilayotgan e'tibor ilgari bo'lmagan edi. Traktorga bitta balon yoki akkumulyator, ekinlarga mineral ozuqa izlab ovora bo'lganlarimni esdan chiqarmayman. Mahsulot topganimda mablag'ning yetmaganligi dard ustiga chipqon edi. Bunisi ham mayli, mahsulotni topshirish, sotish, uning pulini olish shunchalik murakkab ediki, ana shu qiyinchiliklar uchun yerini tashlab ketgan odamlarni ko'rganman.

Bugun esa davlatimiz rahbari dehqonning mushkulini yengillatib berdi. Hamma ekinlar-

dan yuqori hosil olyapmiz, mahsulotga xorijdan xaridorlar kelyapti. Chunki Prezidentimiz qaysi mamlakatga bormasin, ularning aynan qishloq xo'jaligi bo'yicha yirik kompaniyalari, mutaxassislarni O'zbekistonga jalb qilmoqda.

Ikkinchi tomondan esa jahon standartlariga mos mahsulotlar yetishtirish tizimi yaratilmoqda. Meni quvontiradigan narsa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni qayta ishlashda yoshlarimizning faol jalb qilinayotganligidir. Hozirning o'zidayoq yigit-qizlar yaratgan startap loyihalar orqali sohaga o'nlab yangiliklar kirib kelmogda.

Eng muhimi, dunyoning hech qayerida topilmaydigan tuprog'imiz, yerimiz, to'rt fasl o'zini namoyon etadigan tabiatimiz bor. Yerga cho'p suqsak barg yozib, hosil beryapti. To'g'ri, keyingi paytda suv taqchilligi kuzatilmogda, ekologik barqarorlikka putur yetmogda. Ammo bunga ko'pinchi o'zimiz sababchi bo'lyapmiz. Bugun dunyo qishloq xo'jaligi suv tejovchi texnologiyalarga o'tmogda, nega biz buni keng joriy etmasligimiz kerak. Ekologiya musaffoligini saqlashga har bir inson o'zini burchli deb bilishi kerak. Daraxt va yashil maydonlarni nobud qilishni emas, ko'paytirishni o'ylashimiz kerak. Yaratgan egam yomg'irini, qorini beryapti, boshqacha aytganda, rizqimizni sochib turibdi. Uni ozgina peshona teri to'kib yig'ishtirib olish o'zimizga bog'liq-da. Bu dunyodagi jannatni, farovon hayotni o'z mehnatimiz bilan, qalb qo'rimiz bilan yaratamiz.

Bugun dunyo qalqib turibdi. O'zbekiston esa dunyoda o'z o'rnini topish uchun astoydil intilmoqda. Mamlakatdagi tinchlik, osoyishtalik, taraqqiyotga bo'lgan ishtiyoq bizni yangi maralarga boshlayapti. Bizning vazifamiz berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, qo'limiz bilan yaratayotgan noz-ne'matlarning farovon kunimizga xizmat qilishini ta'minlash, deb o'ylayman.

**Zaynab HAYDAROVA,**  
**Narpay tumanidagi «Mehnat-rohat»**  
**fermer xo'jaligi rahbari.**  
**O'zbekiston Respublikasida xizmat**  
**ko'rsatgan paxtakor.**



## Og'ir kunlarda matonat ko'rsatganlar unutilmaydi

**Ayol nafislik va nafosat, mehr-muhabbat, go'zallik ramzidir. Ular bejiz farishtalarga o'xshatilmaydi. Shu bilan birga, ularning matonati, fidoyiligi va yurtga sadoqati haqida ko'plab misollar bor. Jumladan, Ikkinchi jahon urushi davrida front va front ortida fidokorona mehnat qilib, g'alabaga o'z hissasini qo'shgan minglab onaxonlarimiz nomi tarix zarvaraqilarida muhrlanib qolgan. Mardlik va shijoat ko'rsatgan fidoyi onajonlarimizni yodga olib, ularga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatish bizning burchimizdir.**



Kattaqo'rg'on suv ombori yurtimizda qurilgan ilk suv havzasi hisoblanadi. Viloyat davlat arxivida saqlanayotgan ma'lumotlarga ko'ra, ana shu suv ombori 1940-1951-yillarda qurib bitkazilgan. Ayni urush davrida qurilishi boshlangan suv omborining bunyod etilishida xotin-qizlarimizning xizmati beqiyos bo'lgan. 1941-yilda olingan suratlar aynan shu mehnat fronti xaqida hikoya qiladi.

Arxivimizda saqlanayotgan 1259-sonli R.Kari-movning shaxsiy fondida 1941-yilda birinчилardan ko'ngilli bo'lib urushga o'tlangan Samarqand tumani Buxor qishlog'ida yashagan Dodar Hotamova to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Frontga jo'natilayotgan ayollarimiz ketishdan oldin harbiy tayyorgarlikdan o'tgan.

Arxivlarda saqlanib qolgan suratlarda Samar-

qand shahrida frontga zarur mahsulotlar yetkazib bergan korxonalarining asosiy ishchi kuchi ayollar bo'lganligi ko'rinib turibdi. Ularning zahmatli mehnati bilan barcha mahsulotlar vaqtida yetkazib berilgan. Jumladan, "8-mart" fabrikasi ishchi-xizmatchilari jangchilarni pax-talik issiq kiyim-bosh, ichki kiyim, paytava, paypoq va qo'lqoplar bilan ta'minlagan.

Saqlanib qolgan hujjatlar-ni varaqlar ekanmiz, bugungi saodatli kunlarimizga osonlikcha erishilmaganini anglash mumkin. Bugun Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari qatori front ortida mehnat qilgan faxriylar, otaxonu onaxonlarning nomlarini qayta tiklash va abadiylashtirishda arxiv xodimlarining xizmati katta bo'lmoqda.

**F.ULUG'OV,**  
**viloyat davlat arxivi**  
**yetakchi arxivchisi.**

# O'zbekiston-Vengriya

rektorlarining uchinchi forumi bo'lib o'tdi

**“Ipak yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetida “Raqamli davrda oliy ta'lim: sun'iy intellekt, innovatsion modellar va global raqobatbardosh universitetlar” mavzusida O'zbekiston-Vengriya rektorlarining uchinchi forumi bo'lib o'tdi.**

Tadbirda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipov, Vengriya Rektorlar konferensiyasi prezidenti Bela Merke-li, Vengriyaning O'zbekistondagi Favqulodda va Muxtor elchisi Jozef Rozsa, shuningdek, ikki mamlakatning yetakchi oliy ta'lim tashkilotlari rahbarlari va soha vakillari ishtirok etdi.

- Vengriya bilan oliy ta'lim va ilm-fan sohasida hamkorlik 2017-yil 21-dekabr kuni Toshkent shahrida imzolangan "O'zbekiston Respublikasi hukumati va Vengriya hukumati o'rtasida ta'lim, fan va madaniyat sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitim" asosida amalga oshirilmoqda, - dedi vazir Q.Shari-pov. - Ushbu hujjat ikki mamlakat o'rtasida ta'lim, fan va madaniyat sohalaridagi ikki tomonlama munosabatlarning faol rivojlanishi

uchun xizmat qiladi. Bugungi kunda O'zbekistonning 50 dan ortiq oliy ta'lim muassasasi Vengriyaning 30 dan ziyod universitet va ilmiy-ta'lim tashkilotlari bilan 100 ga yaqin bitim va anglashuv memorandum-lari asosida o'zaro hamkorlik qilib kelmogda. So'nggi besh yil mo-baynida O'zbekiston va Vengriya oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik tamoman yangi bosqichga ko'tarildi.

Darhaqiqat, O'zbekiston-Vengriya hamkorligidagi axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, muqobil energiya manbalari, oziq-ovqat mahsulotlari, qurilish materiallari va ekologik loyihalarni qamrab oluvchi 17 ta startap-loyihalar ma'qullangan va moliyalashtirilgan. Vengriya hukumati O'zbekiston fuqarolari uchun "Stipendium Hungaricum" stipendiya dasturi doirasida



2026-2027-o'quv yilida 200 o'ringa ta'lim grantlari kvotasi ajratdi.

O'zbekiston-Vengriya uchinchi rektorlar forumi doirasida zamonaviy oliy ta'limni rivojlantirish, ilmiy hamkorlikni kengaytirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash masalalariga bag'ishlangan parallel sessiyalar bo'lib o'tdi. Unda sun'iy intellekt davrida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish hamda talabalar startaplarini rivojlantirishning samarali mexanizmlari muhokama qilindi.

- So'nggi yillarda Vengriya va O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi aloqalar sezilarli darajada rivojlandi, - dedi Vengriya Rektorlar konferensiyasi prezidenti Bela Merke-li. - Avvaliga faqat tanishuv va muloqotdan boshlangan hamkorlik bugungi kunda aniq institutsional hamkorliklar, talaba almashinuv dasturlari hamda ilmiy-tadqiqot loyihalari ko'rinishida shakllanib bormogda.

Forum yakunida oliy ta'lim

muassasalari o'rtasida hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan qator kelishuvlarga erishildi. Kelishuvlar doirasida Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti hamda Vengriya startap kompaniyalari bilan hamkorlikda xalqaro grant loyihalarini ishlab chiqish, qo'shma ishchi guruh tashkil etish va AgriTech yo'nalishidagi startaplarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan InnoGEN loyihasini amalga oshirish rejalashtirildi.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Vengriyaning Semmelweis universiteti bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Dunaujvarosh universiteti bilan o'zaro anglashuv memorandumini imzoladi. Bundan tashqari, Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti hamda yurtimizdagi boshqa o'nlab oliy ta'lim muassasalari Vengriya universitetlari bilan hamkorlik qilishga kelishib oldi.

Xurshida ERNAZAROVA.



## SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

**9-MART**

**Saidahmad LAQAYEV** – 1952-yil Payariq tumanida tug'ilgan. Matematika–fizika fanlari doktori, akademik. “Do'stlik” ordeni sohibi.

**10-MART**

**To'ti YUSUPOVA** – (1936-2022) Samarqand tumanida tug'ilgan. O'zbekiston xalq artisti.

**Oyrajab BURHONOVA** – 1957-yilda Kattaqo'rg'on tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi.

**11-MART**

**Mardon MAVLONOV** – 1963-yil Samarqand tumanida tug'ilgan. O'zbekiston xalq artisti.

**12-MART**

**Nasim HOSHIMOV** – (1920-2000) Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekiston xalq artisti.

**Qo'ziboy MAMARAIMOV** – (1946-2024) Payariq tumanida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, iqtisod fanlari doktori, professor.

**14-MART**

**Barot BOYQOBILOV** – (1937-2006) Urgut tumanida tug'ilgan. O'zbekiston xalq shoiri, Alisher Navoiy nomidagi davlat mukofoti laureati.

**Nodir JONUZOQ** - 1976-yilda Bulung'ur tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.





Boshim osmon edi ul chog'lar,  
Suyab turar edi, cho'ng tog'lar,  
Yuragimda yo'q edi, dog'lar,  
Gullar bersang, olmadim dunyo,  
Nazaringa ilmadim, dunyo!

Qancha ko'ngil poyimda edi,  
Tiniq suvlar soyimda edi,  
Mening ko'nglim oyimda edi,  
Gullar bersang, olmadim dunyo,  
Mehrimg bilan to'lmadim, dunyo!

Otam bilan ko'nglim to'q edi,  
Onam bilan g'amim yo'q edi,  
Ko'zlarim o't, yurak cho'g' edi,  
Gullar bersang, olmadim dunyo,  
Sen tomonda bo'lmadim, dunyo!

O'z nafsiga qul banda edim,  
Taqlangan olmani yedim,  
Jannatlardan quvg'indi bo'ldim,  
Gullar bersang, olmadim dunyo,  
Ishqdan ketdim, o'lmadim, dunyo?!

Goh kuchliman, goho nochorman,  
Kunlarning zulmiga g'arq, orman,  
Dilidan qon oqqan anorman,  
Gullar bersang, olmadim dunyo,  
Ketishimni bilmadim, dunyo!

Bilmam, yana qancha bahorim qoldi,  
Bilmam, yana qancha chiqar quyoshim.  
Qaynoq maktublaring jonimni oldi,  
Yana qancha yashar, ko'ksingda boshim?

Yo Alloh, sen mendan yashagin ko'proq,  
Loaql ortiqroq yashagin bir kun.  
Boshimda bir tomchi yosh to'kmoq uchun,  
Qabrimga bir dona gul ekmoq uchun.



## Gullar bersang, olmadim

# dunyo!

Xosiyat BOBOMURODOVA,  
O'zbekiston xalq shoiri.

Momo merosdir, kim aytar: "Yangi ishq",  
To'rt jonibim, ham chapiyu, o'ngi ishq,  
Ming shukurlar, qolmadi qalbim yolg'iz,  
Og'ushiga oldi meni so'nggi ishq.

Zaiflashar vujud yil o'tgan sayin,  
Qattiqroq suyansang qulaydi bir kun..  
Tafakkur va aql to'lishar tayin,  
Mangulikka noming eltmoliq uchun.

Qachon ulguraman qalbmni ochib,  
Boshingdan mehrimni sochaman qachon?  
Kunlar qushlar misol boradir qochib,  
Ortiga qayrilmas, sochsam hamki don.

O, bahor, bag'ringda gullaydi chaman,  
Ta'rifga aslo topolmayman so'z.  
Biram borgilarim kelar sen tomon,  
Netay yo'larimni to'sib turar kuz..

Yelkamdand qo'lini olsaydi yillar,  
Ayrilsa, bag'rimdan tikanlar - g'amilar.  
Toshlarini terib tashlasa yo'llar,  
Yoddan chiqib ketsa, qayg'uli damlar.

G'iybat, hasad nomli zamondoshlarim,  
Hech vaqo topolmay ketsalar ko'chib.  
Qurib qolsa birdan ko'zda yoshlarim.  
Bahorim, sen tomon ketardim uchib.

Seni kutib turgan yaxshiliklarni,  
Ko'rging kelar ey, do'st men bilan baham.  
Senga yetkazay deb xush qiliqlarni,  
Eng ulug' bir kunni ilyayman men ham.

Qalbim, endi senga yozolmayman xat,  
To'liblar turibsan, turibsan qalqib.  
Ming qavatmisan, yo million qavat,  
Har zarrangda ming oh turibdi balqib.

Qo'rqamanki, yana kelmoqlikdan duch,  
Bitmog'i noma'lum yaralarimga.  
Endi avvalgiday berolmayman kuch,  
Toptalgan umidu choralaringga.

Bilmaysan, tilim boshqa, dilim boshqa,  
Dilimni ochmoqning hech iloji yo'q.  
Sen bilan jonim biru yo'lim boshqa,  
Meni har qadamda poylab turar o'q.

Toabad bedorlik bitilgan menga,  
Quyoshni she'r bilan kutib olaman.  
Qalbinga ninalar sanchaveraman,  
Tun ketsa ham so'zlar bilan qolaman.

Allaqachon mendan ketgan gulbahor,  
Xazonlari bilan ezar bukun kuz.  
Bilaman boshimda kutib turar dor...  
Ammo sen ne uchun o'yg'oqsan, hanuz?

Yo'l ekan, umrning so'ngigacha to,  
Tugamas, hayoting tugamay turib.  
Yo'llar bor do'zaxu jannatda hatto,  
Faqat qolmasak bas, adashib kirib.

Men qirq jonman, agar sen o'n jon bo'lsang,  
Men sharaftan, agarda sen shon bo'lsang.  
Ko'rding bog'langanman uzun yillarga,  
Qutqar meni rostdan pahlavon bo'lsang.

Ey, xayol, qalbmni chirpirak qilib,  
Tashlab keladursan, har tun poyiga.  
Imkon ber, ertaga yashashim uchun,  
Qaysi qo'l yetmishdir, axir oyiga

### KUNDAN KUNGA

Yoshi ortgan sari kamayib kuni,  
Umrin gulday ekan ekan odamzod.  
Ko'ngli arshga intilgan sari,  
Asta-asta cho'kar ekan odamzod.

Erta tongda kutib saharlarini,  
Kun kundan yo'qotib ohorlarini,  
Bolasiga berib bahorlarini,  
G'amni o'zi chekar ekan odamzod.

Gohida qul bo'lsa gohida sulton,  
Bosh yorilsa bo'rk ostida saqlab jon,  
To'ylarida yozib katta dasturxon,  
Bor yo'g'ini to'kar ekan odamzod.

Yo'ngan sari yo'g'on tortib o'rasi,  
Birda bo'shab, birda to'lib qo'rasi,  
So'rab qolsa sodiq do'stu jo'rasi,  
Yolg'iz jonin tikar ekan odamzod.

Tirishgan tosh yorar, deya tosh yorib,  
Baland eshiklarga urib, bosh yorib,  
Faqat yor oldida sirri fosh yorib.  
Daryo kabi oqar ekan odamzod.

Jon berib erishsa, omad, zafarga,  
Do'stlar soni yetsa ming-ming nafarga,  
Ketsa yog'och otda so'nggi safarga,  
Ortiga bir boqar ekan odamzod.

O, nega dunyoi dundan noliymiz,  
Ming kun shodlik, bir kun cheksak sal jafu  
Kunduzdan noliymiz, tundan noliymiz.  
Aslida dunyomas, bizlar bevafo.

Kimlar nelar dedi, sizga, bilmadim,  
Nogohda duch keldim g'azabingizga.  
Ehtimol hamfikir, hamkor bo'lmadim.  
Yo sherik bo'lmadim, azobingizga.

Band edim, so'z izlab, qalbmni qazib,  
Qaysi yo'l keltirdi, guzaringizga.  
Janda kiygan ko'nglim guldan ham nozik,  
Loyiqmasman axir, ozoringizga!

Men Samarqandimning erka shoiri,  
Qilcha nafratdan ham ketaman qalqib.  
Meni mavh etmoqqa urinmang bekor,  
Ortimda tog' kabi turibdi, xalqim.

Xayr, dedim, ko'zini olib qochdi oy,  
Xayr dedim, yulduzlar oldi bekinib.  
Bildim, yuragingda yo'qdir menga joy,  
Xazonlar ortingdan qoldi o'kinib.

Ketding, tashlab, ortga buriliding mag'rur,  
Qoldim, men ham ortga burildim mag'rur.  
Do'st yo'q edi, qayg'uli baxtdan boshqa,  
Guvoh ham yo'q edi, daraxtdan boshqa.

Burilsang ko'rarding, to'kkanimni yosh,  
Ko'rarding, daraxtga qo'yganimni bosh.  
Yaxshiyam, tun sirdan ochmaydi og'iz,  
Yaxshiyam, xazonga aylanadi kuz.

Qish bo'yi qalbmni o'radi qorlar,  
Ayozlardan o'tib kelolmadi baxt.  
Bahor kelgan sari ketyapman qo'rqib,  
Gullab qo'ymasmikin, sirimni daraxt.

# AYOL hech qachon yolg'iz emas

O'zini qadrlaydigan ayollarni yaxshi ko'ra-man. Hamisha yaqinlarining e'tiborida, nazoratida. Ba'zan o'zim yaxshi ko'rgan, nimasi bilandir e'tiborimni tortgan ayol haqida so'rasam, o'zini yaxshi ko'radi, o'zini qadrlaydi, deb aytishadi. Mantiqan ayol yaralishdan xudbin. Qiz bola dunyoga kelgan kunidan boshlab uydagilarning diqqat-e'tiborida. O'zining ham nazaridan hech narsa chetda qolmaydi. Mitti qo'lhalarini cho'zib, shirin tabassumi bilan hammani "eritish"ni qoyillatadi. Otalarning poyabzali yaltirab turishi ham, onalarning yoniga kirib, og'irini yengil qilgan ham shular. Voyaga yetar ekan, oilada hammaning xavotiriyu hadigiga aylanadi. Qiz bola-da! Ayniqsa, birinchi marta so'vchilar so'roqlashi oiladagi hammani bir qalqitadi. Oiladagi hamma bir-biridan ko'zini olib qochadi. Azaliy taqdir "birovning xasmi" deb atalsa-da, odam o'zining qiziga istisno istab qolarkan-da. Demak, qiz bola doimo oilaning ardog'idagi omonat.

Kun kelib uzatiladi. Endi o'zining uyi, ro'zg'ori bor. U tomonda ham doim ardoqda. Garchi o'zbek onalari qaynonalikni joyiga qo'yishsa ham ich-ichidan bolasidan ortiq suyadi kelinini. Qaynotalar-ku doim kelinning tomonida. Birovning bolasi o'ksimasin.

Yigitlar zimmasiga oilani olar ekan, unda ayol nomli xilqatning bosh egasi bo'lib qolmay, ko'nglining, xayol-larining ham egasiga aylanadi. Endi u shu xonadonning bekasi, erkasi. Turmushda nimaiki achchiq-chuchuk bo'lsa, shu egalik nuqtai nazaridan muammolar bartaraf etiladi. Farzandlar tug'ilib, tashvishlar kattargani sari ayol yanada ko'proq e'tiborda. "Onajon, darsimga yordam bering", "Onajon, kiyimimni dazmollab bering", "Onajon..." Xullas, endi u shirin tashvishlar bilan birga kun tartibiga "ONA" degan nom bilan chiqadi. Qachon e'tibordan qolibdi ona degan ulug' zot. Farzandlari ulg'aya borgach, endi ularning ardog'iga o'tadi. Onamni davolatishim kerak, onam xavotir oladi, uyga erta borishim kerak. Taqdir taqozosi bilan ba'zan ayollar umrning



qaysidir chorrahasida yolg'iz yashashiga to'g'ri keladi. Hayot-da bu. Shundayam u baribir o'z yaqinlarining e'tiborida bo'ladi. Unga kengliklik bilinmasin deb boshqa yaqinlari yanada e'tibor qaratishadi. "Galatepalik avliyo" filmidagi bir lavha menga yoqadi. Beva ayolga so'vchi kelsa, "Boshimda o'g'lim bor, bilmasam", deb javob qiladi. Demak, u turmush o'rtog'idan keyin shu norasida bolasiga yukinyapti. O'z o'rnida uni oilaning yagona erkagi sifatida tarbiyalayapti. Hatto men ham sening qo'lingdaman, deb o'rgatayapti unga. Asli hamisha, hamma zamonda asl erkaklarni ONAlar tarbiyalagan. Shuning uchun ular hech qachon yolg'iz emas.

Biz o'zbek ayoliga baho berganda Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asaridagi Kumushbibini ko'p tilga olamiz. Eri Toshkentga uylanishga ketmoqchi. U "Men ko'ndim!" deydi. U yig'lashi, to'polon qilishi, qaygadir arz qilishi mumkin edi. Uning ham kuchi, farosati shu zaifligida namoyon bo'ladi. Otabel bir sapchib tushadi. Mana ayol! Men shunday ayollarni yaxshi ko'ra-man. Ba'zilarga u baxtini boy berib, qurbon bo'lgan bo'lib tuyular, menga esa eng aqli ayol bo'lib tuyuladi.

"Alpomish" dostoni haqida gap ketganda Hakimbek va Barchinoy atrofiga gap boradi. Barchinoyning kuyov tanlashda qo'yg'an shartlari uning ancha o'ktam qizligidan dalolat beradi. Kimga qanday bilmadim-u, shu asar-da menga Qaldirg'och obrazı yoqadi. Boysari akasidan arazlab, ko'chini olib Qalmiqqa ketdi. Alpomishday botir "Bir xotin debolti oylik yo'lga boramanmi?", deb o'tiribdi. Shunda Qaldirg'och "Oring qani, g'ururing qani, erkak bo'lsang, chechamni olib kelasan!" deydi. Mana, butun dostonga kuch bergan mungli'gina obraz.

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. So'zimning boshida aytganimdek, ayol o'zini yaxshi ko'rsa, oilasini, farzandlari voyaga yetayotgan jamiyatni yaxshi ko'radi. Shu jamiyat rivoji yo'lida AYOL bo'lib yelka tutib beradi.

Manzura SHAMS.

## Ayollar kasbiy o'sishida "ko'rinmas devor"

Bugungi shiddatli zamonda har qanday davlatning rivojlanish darajasi nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar, balki o'sha jamiyatda inson huquqlari, xususan, xotin-qizlar uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan o'lchanmoqda. Gender tengligi shunchaki shior emas, u ijtimoiy adolatni ta'minlovchi va iqtisodiy o'sishni harakatga keltiruvchi asosiy kuchdir.

### ASOSIY TO'SIQ: TAFAKKURDAGI QOLIPLAR

Nega biz hamon gender tengligi haqida gapirganda muammolarga duch kel-yapmiz? Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, asosiy to'siq qonunchilikda emas, balki odamlar ongiga singib ketgan stereotiplardadir. Jamiyatda "ayolning vazifasi faqat oila va farzand tarbiyasi", degan cheklangan qarash hamon ustunlik qilmoqda. Oqibatda, ko'plab iqtidorli xotin-qizlar o'z salohiyatini professional darajada namoyon eta olmayapti. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ayollar erkaklarga qaraganda uy mehnatiga 3 barobar ko'p vaqt sarflayadi. Bu esa ularning kasbiy yuksalishiga to'sqinlik qiluvchi "ko'rinmas devor".

### MUAMMO QAYERDA?

Gender nomutanosiblik ayniqsa, iqtisodiy soha va texnologiyalar (STEM) yo'nalishida ko'zga tashlanmoqda. Ayollarning rahbarlik lavozimlaridagi ulushi hamon pastligicha qolmoqda. Shuningdek, qishloq joylarida xotin-qizlarning zamonaviy ta'lim va raqamli ko'nikmalarga ega bo'lish imkoniyati shaharlardagiga qaraganda cheklangan. Bu esa kelajakda mehnat bozorida ayollarning raqobatbardoshligini pasaytirib yuborishi mumkin. Viloyatimizda xotin-qizlar tadbirkorligi sezilarli o'sgan bo'lsa-da, chekka



tumanlarda xotin-qizlarni doimiy ish o'rni bilan taminlash va ularning huquqiy savodxonligini oshirish hamon dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Hunarmandchilik va turizm sohasida ayollar ulushi yuqori. Biroq ularni yuqori texnologiyali biznesga yo'naltirish ustida ko'proq ishlash lozim.

Mana shu kabi muammlar yechimi uchun bir qator takliflarni keltirib o'tsak maqsadga muvofiq. Shuning bilan birga vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirish uchun faqat qonun qabul qilish yetarli emas, balki tizimli choralar zarur.

Buning uchun ayollar boshqaradigan korxonalarda soliq imtiyozlarini kengaytirish va ularga xomashyo hamda bozoriga chiqishda amaliy yordam berish kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini yanada kengaytirish lozim. Agar ona farzandi xavfsiz joyda ekaniga ishonsa, u bor diqqatini kasbiy faoliyatga qaratadi. Gender tengligi - bu ayolning erkakdan ustunligi emas, balki har ikki jins vakilining jamiyat yuksalishida teng huquqli ekani. Ayollarni masofadan turib ishlashga o'rgatish, ularga IT ko'nikmalarini berish orqali bandlik masalasini hal etsa bo'ladi.

Qachonki ayol o'zini jamiyatning to'laqonli va himoyalangan a'zosi deb his qilsa, o'shanda taraqqiyot tezlashadi.

N.YAHYOQULOVA,  
SamDCHTi o'qituvchisi.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 756 nusxada chop etildi. Buyurtma 95. Hajmi 3 bosma tabaq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

Y.MARQAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda